

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI FAN DOKTORI ILMIY DARAJASINI BERUVCHI  
DSc.13/30.12.2019.T.07.02. RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA  
TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

**XOJIYEVA NAZOKAT DAVRONBEKOVNA**

**TELEKOMMUNIKASIYA SOHASI KORXONALARIDA XIZMAT  
KO'RSATISH FAOLIYATINING INNOVATION YO'NALISHLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.05- Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferatining mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
economic science**

**Xojjiyeva Nazokat Davronbekovna**

Telekommunikatsiya sohasi korxonalarida xizmat ko‘rsatish faoliyatining  
innovatsion yo‘nalishlarini takomillashtirish..... 3

**Хожиева Назокат Давронбековна**

Совершенствование инновационных направлений сервисной  
деятельности на предприятиях телекоммуникационной отрасли..... 27

**Khodjiyeva Nazokat Davronbekovna**

Improving innovative directions of service activities in telecommunications  
enterprises..... 51

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 55

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI FAN DOKTORI ILMIY DARAJASINI BERUVCHI  
DSc.13/30.12.2019.T.07.02. RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA  
TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

**XOJIYEVA NAZOKAT DAVRONBEKOVNA**

**TELEKOMMUNIKASIYA SOHASI KORXONALARIDA XIZMAT  
KO'RSATISH FAOLIYATINING INNOVATION YO'NALISHLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.05- Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Iqt3950 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz) (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasi (www.tuit.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Maxkamov Baxtiyor Shuhratovich</b> iqtisodiyot fanlari doktori, professor
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Ergashxodjaeva Shaxnoza Djasurovna</b> iqtisodiyot fanlari doktori, professor <b>Rejapov Xayrullo Xikmatullaevich</b> iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>Samarqand iqtisodiyot va servis instituti</b>

Dissertatsiya himoyasi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.13/30.12.2019.T.07.02 raqamli Ilmiy Kengashning 2024 yil "\_\_\_\_\_" soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur shoh ko'chasi, 108 uy. Tel.: (99871) 238-64-15 e-mail: info@tuit.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan Toshkent axborot texnologiyalari universiteti ro'yxatga olingan). (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur shoh ko'chasi, 108uyf. Tel.: (99871) 238-64-15 e-mail: info@tuit.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "\_\_\_\_\_" kuni tarqatildi.  
(2024 yil "\_\_\_\_\_" dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**Sh.Sh. To'rayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, i.f.d., professor

**E.Sh. Nazirova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
kotibi, t.f.d., professor

**Sh.Dj. Ergashxodjayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,  
professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon iqtisodiyotidagi sifat o'zgarishlari va globalizatsiya jarayoni tendensiyasiga ko'ra telekommunikatsiya xizmatlari iqtisodiyotning samarali rivojining muhim tarkibiy qismiga aylandi. "Global telekommunikatsiya xizmatlari bozori hajmi 2022-yilda 805,61 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2023 yildan 2030 yilgacha yillik o'sish 6,2 foizga oshishi kutilmoqda"<sup>1</sup>. Istiqbol talablarga ko'ra jahon iqtisodiyotini samarali rivojlantirishning raqamli va innovatsion texnologiyalarga asoslanganligi bir tomondan telekommunikatsiya boshqa tarmoqlar rivojiga ta'sir ko'rsatishi, ikkinchi tomondan esa sohaning o'zi innovatsion texnologiyalarga ko'ra rivojlanishi sharoitida telekommunikatsiya sohasi korxonalarida xizmat ko'rsatish faoliyatining innovatsion yo'nalishlarini takomillashtirish yuzasidan samarali mexanizmlarni qo'llashni taqazo etmoqda.

Jahonda telekommunikatsiya sohasi korxonalarida xizmat ko'rsatish faoliyatining innovatsion yo'nalishlarini takomillashtirish, yangi yondashuvlarni, biznes jarayonlarni, xizmat ko'rsatishning yangi ekotizimlarini ishlab chiqishni hamda qiymat zanjirini yaratish kabi yo'nalishdagi tadqiqotlarga ustuvor darajada ahamiyat qaratilmoqda. Bu borada innovatsion texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish, yuqori darajada xizmat ko'rsatishni tashkil qilish, raqobatbardosh xizmat ko'rsatish sifatini yangi darajaga ko'tarishning metodlogik-uslubiy asoslarini takomillashtirish kabi mavzulardagi tadqiqotlar ustuvor darajada amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston axborot-texnologiyalarini, jumladan, telekommunikatsiya sohasida xizmat ko'rsatishni rivojlantirishni bosqichma-bosqich amalga oshirib bormoqda. Bu yo'nalishda Respublika o'zining dasturlari va strategiyalarini belgilab olgan. O'zbekiston Respublikasida telekommunikatsiya xizmatlaridan keng ko'lamda foydalanishni ta'minlash, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, telekommunikatsiya korxonalarini zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirish, xizmat ko'rsatish faoliyatining innovatsion yo'nalishlarini yanada rivojlantirish kabi keng qamrovli chora-tadbirlar tashkil etilmoqda. Xususan, O'zbekiston-2030 strategiyasi doirasida barcha aholi punktlarini internet bilan to'liq qamrab olish va uning tezligini 10 barobar oshirish, xalqaro internetga ulanish tezligini 5000 Gbit/s.ga yetkazish, optik tolali aloqa liniyalari va keng polosali ma'lumot uzatish tarmoqlarining qamrovini 100 foizga yetkazish vasifasi belgilab berilgan<sup>2</sup>. Respublikada keng ko'lamda amalga oshirilayotgan islohotlarga mos ravishda, telekommunikatsiya sohasi korxonalarida xizmat ko'rsatish faoliyatining innovatsion yo'nalishlarida qiymat zanjirini yaratishni takomillashtirish zarurati mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", "2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini

<sup>1</sup> Worldwide Telecommunications Services Forecast, 2023-2026: Consumer, Commercial, Wireline, and Mobile

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158 sonli farmoni

yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida", "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-noyabrdagi 699-sonli "O'zbekiston Respublikasi telekommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarida hamda ushbu sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qilmoqda.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining II. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Korxonalarda xizmat ko'rsatish sifatini oshirish masalalarini taniqli xorijiy olimlardan Dj.L.Xeskett, L.Schlesinger, Z.Zeithaml, A.Parasuraman, R.Oliver, F.Kotler, J.Smith, E.Johnson, M.Lee, S.Thompson, D.Brown, O.Green<sup>3</sup> va boshqalarning ilmiy ishlarida ko'rish mumkin.

MDH mamlakatlari olimlari A.A.Tomilov, Yu.N.Kurbatov, G.P.Litvinova, S.I.Simonenko, N.V.Soloveva, N.A.Yunusov<sup>4</sup> va boshqalarning ilmiy ishlarida telekommunikatsiya korxonalarida raqobatbardoshlik va sifat menejmenti samaradorligini oshirish hamda xizmat ko'rsatishni yaxshilash usullari va xizmatlar sifatini oshirish uchun yangi texnologiyalarni joriy etishning ilmiy-metodik asoslari o'rganilgan.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan M.A.Maxkamova, X.A.Muxitdinov, I.I.Soliyev, B.Sh.Maxkamov, M.R.Shaislamova, N.A.Yunusov, R.R.To'rayev, Sh.Sh.Saidov, A.A.Karimov, L.K.Usmanovalarning<sup>5</sup> ilmiy ishlarida

---

<sup>3</sup> Heskett, J., W. E. Sasser Jr., and L. Schlesinger. The Service Profit Chain: How Leading Companies Link Profit and Growth to Loyalty, Satisfaction, and Value. New York: Free Press, 1997. Christian Gronroos Service Management and Marketing: Customer Management in Service Competition, 3rd Edition 496 p. Valarie A. Zeithaml, A. Parasuraman, Leonard L. Berry Delivering Quality Service: Balancing Customer Perceptions and Expectations 226 p. Richard L. Oliver Satisfaction: A Behavioral Perspective on the Consumer 2nd Edition 432 p. Philip Kotler Marketing Management, Fifteenth edition. J. Smith "Innovations in Telecommunication Services: A Study of the Impact of New Technologies on Service Delivery and Customer Satisfaction" University of California, Berkeley 2018 Phd paper. E. Johnson "Service Innovation in Telecommunications: Strategies for Enhancing Customer Experience and Competitive Advantage" Massachusetts Institute of Technology (MIT) 2019 Phd paper. M. Lee "The Role of Digital Transformation in Enhancing Service Quality in Telecommunication Enterprises" Stanford University 2020. S. Thompson "Customer-Centric Innovation in Telecommunications: Leveraging Data Analytics for Service Improvement University of Cambridge 2017. D. Brown "Emerging Trends in Telecommunications Services: Implications for Business Models and Strategic Management" Harvard Business School 2021. O. Green "Innovation Management in Telecommunications: A Study of Organizational Capabilities and Market Dynamics" London School of Economics and Political Science (LSE) 2016

<sup>4</sup> Томилов А.А. "Управление качеством услуг в телекоммуникационной отрасли" // Журнал "Вестник связи", 2017. Курбатов Ю.Н. "Маркетинг и управление качеством в телекоммуникациях" // Журнал "Менеджмент в России и за рубежом", 2018. Литвинова Г.П. "Инновационные подходы к управлению качеством телекоммуникационных услуг" // Журнал "Экономика и управление", 2019. Симоненко С.И. "Стратегическое управление качеством услуг в телекоммуникационных компаниях" // Журнал "Телекоммуникации и информатика", 2020. Соловьева Н.В. "Управление качеством услуг в телекоммуникационных компаниях Казахстана" // Журнал "Экономика и управление в современных условиях", 2021.

<sup>5</sup> Махкамова М.А. Формирование организационно экономического механизма управления инновационной деятельностью на промышленных предприятиях Республики Узбекистан. 08.00.04. йўналиш, и.ф.д. диссертация, 2004. 291 б. Мухитдинов Х.А. Проблемы повышения финансово-экономической эффективности

telekommunikatsiya korxonalarida xizmat ko'rsatishning innovatsion yo'nalishlari o'rganilgan.

Yuqorida keltirilgan mualliflar tomonidan O'zbekiston telekommunikatsiya korxonalarida xizmat ko'rsatishning innovatsion yo'nalishlarini istiqbolli masalalari, o'ziga xos xususiyatlari, bu boradagi mavjud muammolar, telekommunikatsiya sohasi korxonalari infratizimini takomillashtirish yuzasidan konseptual takliflar ishlab chiqilmagan. Mazkur muammolarning dolzarbligi va yetarli darajada o'rganilmaganligi ushbu tadqiqot ishining zaruratini belgilab berdi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot Toshkent axborot texnologiyalari universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №A-2-59 "Raqamli iqtisodiyot sharoitida O'zbekiston mehnat bozorining adaptiv moslashuvchan transformatsiyasi va ijtimoiy-mehnat munosabatlarini tashkil etish modellari" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** telekommunikatsiya sohasi korxonalarida xizmat ko'rsatish faoliyatining innovatsion yo'nalishlarini majmuaviy takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

telekommunikatsiya sohasi korxonalarini innovatsion rivojlanish strategiyasining iqtisodiy mazmuni va uning nazariy asoslarini tahlil qilish;

telekommunikatsiya sohasidagi korxonalarining innovatsion rivojlantirishga bo'lgan yondashuvlarini o'rganish;

telekommunikatsiya sohasida xizmat ko'rsatishning innovatsion yo'nalishlarini rivojlantirish bo'yicha jahon tajribasini o'rganish;

telekommunikatsiya sohasi korxonalarida innovatsion faoliyatning infratuzilmaviy modelini takomillashtirish;

telekommunikatsiya sohasi korxonalarida xizmat ko'rsatishning qiymat zanjirini yaratish biznes jarayoni bo'yicha takliflar berish;

telekommunikatsiya sohasi korxonalarida xizmat ko'rsatish sifatini ilg'or innovatsiyalar asosida joriy etishning mexanizmlarini ishlab chiqish;

"O'zbektelekom" AK faoliyatiga xizmat ko'rsatishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish, shuningdek, natijalarni prognozlash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida "O'zbektelekom" AK va tizimidagi korxonalar tanlab olingan.

---

инфокоммуникационных услуг в Узбекистане. Диссертация на соис. уч.ст. к.э.н. Т.: 2007. Солиев И.И. Ўзбекистон алоқа ва ахборотлаштириш соҳасида инновацион жараёнларни ривожланиши. 08.00.03. йўналиш, и.ф.н. диссертация, 2011. 164 б. Махкамов В.Ш. Telekommunikatsiya korxonalari innovatsion faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy asoslari. Monografiya.-T: "Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi", 2021. Shaislamova M.R. Telekommunikatsiya korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish masalalari 08.00.03. yo'nalish, i.f.n. dissertatsiya, 2024. Юнусов Н.А. "Методы повышения качества услуг в телекоммуникационной отрасли Узбекистана" // Журнал "Телекоммуникации и информатика", 2019. Тураев Р.Р. "Стратегическое управление качеством в телекоммуникационных предприятиях Узбекистана" // Журнал "Экономика и управление", 2020. Саидова Ш.Ш. "Инновационные подходы к повышению качества телекоммуникационных услуг в Узбекистане" // Журнал "Инновации в экономике", 2021. Каримов А.А. "Управление качеством и конкурентоспособностью телекоммуникационных услуг в Узбекистане" // Журнал "Менеджмент и маркетинг", 2018. Усманова Л.К. "Современные методы повышения качества клиентского сервиса в телекоммуникационных предприятиях Узбекистана" // Журнал "Экономика и управление", 2022.

**Tadqiqot predmeti** xizmat ko'rsatish faoliyatining innovatsion yo'nalishlarini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy-tashkiliy munosabatlardan iborat.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot jarayonida umumlashirish va statistik guruhlash, qiyosiy va dinamik tahlil, ekspert baholash, ko'p o'zgaruvchan – prinsipial komponent, klaster baholash, shuningdek, regression-korellyatsion tahlil, ekspert baholash, ekonometrik modellashtirish, prognozlash kabi usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

R&D uchun muvaffaqiyat strategiyasi va tarmoqdan foydalanishning hayotiylikini oshirishga ko'ra innovatsion diffuzional ko'rsatkichi qo'shimcha qiymatining akselerativ natijaviyligini oshirishga qaratilgan telekommunikatsiya korxonalarida xizmat ko'rsatishda innovatsion qiymat zanjirini yaratish biznes freymvorki taklif qilingan;

biznes inkubatorlar, klaster alyanslari va professional uyushmalarni rivojlantirishning tarkibiy modeli telekommunikatsiya korxonalarining innovatsion faoliyatini infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash, innovatsion terminalning bosh va yetakchi komponentlariga ko'ra takomillashtirilgan;

tarmoqlararo bog'lanishlarning innovatsion maqomini ta'minlashga ko'ra omnikal kanallar va qulayliklardan foydalanishni diversifikatsiyalash orqali telekommunikatsiya korxonalarida xizmat ko'rsatish sifatini innovatsiyalar asosida oshirish imkoniyatlari kengaytirilgan;

“O'zbektelekom” AKda xizmatlarning tannarxi va unga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik modeli asosida 2030-yilgacha prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

telekommunikatsiya sohasi korxonalarida innovatsion strategiyasining iqtisodiy mohiyati mualliflik yondashuviga ko'ra asoslangan;

telekommunikatsiya sohasi korxonalarida xizmat ko'rsatishning davlat tomonidan rag'batlantirish bo'yicha takliflar asoslangan;

xorijiy va milliy tajriba asosida telekommunikatsiya sohasi korxonalarida xizmat ko'rsatishning innovatsion yo'nalishlarini zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bo'yicha mavjud muammolarining yechimlari taklif etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, statistik ma'lumotlar rasmiy manbalardan, jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, “O'zbektelekom” AKning tizimidagi korxonalardan olinganligi, hamda ishda asoslangan xulosa va takliflarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati nazariy jihatdan asoslangan taklif va tavsiyalar telekommunikatsiya sohasi korxonalarida xizmat ko'rsatish faoliyatining innovatsion yo'nalishiga oid ilmiy apparatni yanada takomillashtirishga hamda mavzuga oid ilmiy-tadqiqot ishlarida foydalanishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan telekommunikatsiya sohasini rivojlantirishga oid tarmoq va hududiy dasturlarni ishlab chiqishda hamda oliy ta'lim muassasalari o'quv dasturlariga

muvofiq o'quv adabiyotlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Telekommunikatsiya sohasi korxonalarida xizmat ko'rsatish faoliyatining innovatsion yo'nalishlari takomillashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

R&D uchun muvaffaqiyat startegiyasi va tarmoqdan foydalanishning hayotiylikini oshirishga ko'ra innovatsion diffuzional ko'rsatkichi qo'shimcha qiymatining akselerativ natijaviyligini oshirishga qaratilgan telekommunikatsiya korxonalarida xizmat ko'rsatishda innovatsion qiymat zanjirini yaratish biznes freymvorki taklifi "O'zbektelekom" AK faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston telekommunikatsiya tarmoqlarini boshqarish respublika markazining 2024-yil 10-sentabrdagi dalolatnomasi, O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2024-yil 13-sentabrdagi 33-8/6284 sonli ma'lumotnomasi). Taklifni joriy etish natijasida telekommunikatsiya korxonalarining innovatsion qiymatlar zanjirini yanada takomillashtirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

biznes inkubatorlar, klaster alyanslari va professional uyushmalarni rivojlantirishning tarkibiy modeli telekommunikatsiya korxonalarining innovatsion faoliyatini infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash, innovatsion terminalning bosh va yetakchi komponentlariga ko'ra takomillashtirish taklifi "O'zbektelekom" AK faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston telekommunikatsiya tarmoqlarini boshqarish respublika markazining 2024-yil 10-sentabrdagi dalolatnomasi, O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2024-yil 13-sentabrdagi 33-8/6284 sonli ma'lumotnomasi). Taklif sohada innovatsiyalar uchun yanada qulay muhit yaratishga hamda xizmat ko'rsatish sub'ektlarining yangi xizmatlarni ko'rsatish, bozor o'zgarishlariga moslashish va raqobatbardoshlikni oshirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

tarmoqlararo bog'lanishlarning innovatsion maqomini ta'minlashga ko'ra omnikal kanallar va qulayliklardan foydalanishni diversifikatsiya-lash orqali telekommunikatsiya korxonalarida xizmat ko'rsatish sifatini innovatsiyalar asosida oshirish imkoniyatlari kengaytirish bo'yicha taklif "O'zbektelekom" AK faoliyatiga joriy qilingan ("O'zbektelekom" AKning 2024 yil 26 iyuldagi 27-03-21/2431-sonli ma'lumotnomasi, O'zbekiston telekommunikatsiya tarmoqlarini boshqarish respublika markazining 2024-yil 10-sentabrdagi dalolatnomasi, O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2024-yil 13-sentabrdagi 33-8/6284 sonli ma'lumotnomasi). Taklifning joriy qilinishi xizmat ko'rsatish sifatini oshirishda IOT, ML, AI dan foydalanish yo'lga qo'yilgan;

"O'zbektelekom" AKda xizmatlarning tannarxi va unga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik modeliga ko'ra 2030-yilgacha prognoz ko'rsatkichlari "O'zbektelekom" AK faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2024-yil 13-sentabrdagi 33-8/6284-sonli ma'lumotnomasi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 14-sentabrdagi 4/17-4/4-1691-sonli ma'lumotnomasi). Taklifning amaliyotga joriy qilinishi soha natijadorligini oshirishda ichki imkoniyatlardan samaradli foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga muayyan darajada xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarini aprobatyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari 15 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarning e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ishlar chop etilgan. Ulardan 8 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan nashrlar ro'yxatiga kiritilgan jurnallarda, shu jumladan 2 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya ishining umumiy hajmi 142 betni tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**


Dissertatsiyaning **kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek tadqiqot obyekti va predmeti shakllantirilgan, tadqiqot mavzusining ilmiy ishlar rejasi bilan bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, ilmiy natijalari, ilmiy va amaliy natijalari keltirilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi hamda nashr etilgan ishlar va dissertatsiya ishining tuzilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Telekommunikatsiya sohasi korxonalarining innovatsion rivojlanish strategiyasiga bo'lgan yondashuvning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida telekommunikatsiya sohasi korxonalarining innovatsion rivojlanish strategiyasiga bo'lgan yondashuvning ilmiy- nazariy asoslari masalasi yoritilgan bo'lib, innovatsiya va innovatsion jarayon hamda innovatsion rivojlantirish strategiyasi tushunchalariga xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarni fikrlari tahlil qilingan.

Jahonda axborotlashtirish jarayonlarini tezkorlik bilan iqtisodiyot tarmoqlariga joriy etilishi provardida iqtisodiyotdagi integratsion jarayonlari rivojlantirishni asosiy vositasi sifatida qaralmoqda. Iqtisodiyotdagi integratsion jarayonlar rivojlanishni harakatlantiruvchi kuchi sifatida yangi hududiy bozorlarni o'zlashtirish va korxonalar tarmog'ini tashkil etish orqali ishlab chiqarish va xizmatlar hamda mahsulotlarni sotuvchilar, yetkazib beruvchilar va iste'molchilarni birlashtirgan korxonalar, hududlar va umuman mamlakatlarning raqobatbardoshligini mustahkamlash va oshirish jarayonlariga hissa qo'shmoqda.

Telekommunikatsiya sohasidagi korxonalarining innovatsion rivojlanishga bo'lgan yondashuvlari xilma-xil bo'lishi va kompaniyaning strategiyasiga, uning hajmiga, bozor mavqeiga, shuningdek sohadagi hozirgi tendentsiyalarga bog'liq. Bu yerda tez-tez qo'llaniladigan ba'zi yondashuvlarni ko'rib chiqishimiz mumkin.

Innovatsion rivojlanishga turli yondashuvlarning kombinatsiyasi telekommunikatsiya korxonalariga raqobatbardoshlikni oshirish va mijozlar ehtiyojini qondirishga yordam beradigan yangi texnologiyalar va yechimlarni samarali izlash, ishlab chiqish va joriy etish imkonini beradi.



### 1-rasm. Telekommunikatsiya sohasidagi innovatsion rivojlanish yondashuvlar<sup>6</sup>

Bu innovatsion yondashuvlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun telekommunikatsiya sohasidagi korxonalarni klasterga birlashtirish, resurslardan yanada samarali foydalanish, innovatsiyalar ustida hamkorlik qilish va sanoatni rivojlantirish uchun qulay muhit yaratish imkonini beradi.

Dissertatsiya ishining **“Telekommunikatsiya sohasi korxonalarida innovatsion rivojlanish darajasining tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida telekommunikatsiya sohasi korxonalarini innovatsion rivojlanishi darajasi tahlili hamda jahon tajribasi yoritilgan. O‘zbekiston telekommunikatsiya tarmog‘i korxonalarining innovatsion rivojlanish darajasini tahlil qilish sanoatning o‘shish va modernizatsiya qilish salohiyatiga ega ekanligi ko‘rsatilgan. Biroq, moliya yetishmasligi, malakali kadrlar yetishmasligi va innovatsion madaniyatning zaifligi kabi muammolar mavjud. Sohada innovatsiyalarni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun investitsiyalarni jalb etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, innovatsion markazlar va laboratoriyalar tashkil etish, kadrlar tayyorlash dasturlarini o‘tkazish bo‘yicha ishlarni kuchaytirish zarur.

O‘zbekiston telekommunikatsiya sohasi xizmatlarini yaxshilash maqsadida innovatsion texnologiyalarni faol rivojlantirmoqda va joriy etmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va Internet iqtisodiy tizimlar va jamiyatlarni o‘zgartirishda, mehnat unumdorligini va iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim rol o‘ynadi. AKT sohasida yaratilgan innovatsiyalar yangi o‘shish nuqtalarini yaratish va mamlakatda sezilarli ijtimoiy yaxshilanishlarni amalga oshirish uchun katta salohiyatga ega.


2016-2023-yillarda innovatsiyalarga sarflangan xarajatlarning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi ortib, 2021-yilda YaIMning 2,41 foizini (1664,32 million dollar) tashkil etdi. 2016-yildan 2021-yilgacha bo‘lgan davrda innovatsion xarajatlarning o‘rtacha yillik o‘shish sur‘ati 13,95% ni tashkil etdi. 2023-yil yakuniga ko‘ra, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlarining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi 1,9 foizni tashkil etdi. 2023-yilda Global Index reytingida O‘zbekiston 132 davlat orasida 82-o‘rinni saqlab qoldi. O‘zbekiston milliy iqtisodiyotning rivojlanish darajasiga nisbatan yuqori innovatsiyalarga erishgan

<sup>6</sup> Muallif tomonidan tadqiq etilgan ma’lumotlar asosida tuzilgan.


davlatlar qatoridan joy oldi, ya'ni innovatsiyalarning yalpi ichki mahsulotga nisbatan yuqori samaradorligi qayd etildi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) YaIMdagi ulushi 2024-yil hisobotlarga ko'ra 2,4 foizni, o'rtacha yillik o'sish esa 2018-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davr ichida 3,3 foizni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-mart oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi 6 211,9 mlrd. so'mni tashkil etdi yoki 2022-yilning shu davriga nisbatan 21,0 % ga o'sdi. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha aloqa va axborotlashtirish sohasida ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi so'ngi yillarda sezilarli darajada oshdi.



Demak, 2019-yilning yanvar-mart oylarida mazkur sohada xizmatlar hajmi 2 215,7 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning birinchi choragi natijalariga ko'ra ushbu ko'rsatkich 6 211,9 mlrd. so'mga yetdi. Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulush telekommunikatsiya xizmatlariga 64,8 % bilan to'g'ri keladi.




2023-yil yanvar-mart oylarida telekommunikatsiya xizmatlari hajmi 4 025,6 mlrd. so'mga yetib, 2022-yilga nisbatan ushbu xizmatlarning o'sish sur'ati 119,9 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ularning ulushi 4,2 % ni tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekiston Respublikasi bo'yicha telekommunikatsiya sohasida ko'rsatilgan xizmatlarning umumiy hajmida Toshkent shahrining ulushi 41,4 % ni tashkil etib, 1 665,1 mlrd. so'mga yetdi. Tegishli ko'rsatkichlar bo'yicha keyingi yetakchi o'rinlarni Farg'ona (304,5 mlrd. so'm yoki umumiy hajmiga nisbatan 7,6 %), Samarqand (284,4 mlrd.

<sup>7</sup> Stat.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

<sup>8</sup> file:///C:/Users/user/Downloads/Xizmatlar.pdf

so‘m yoki 7,1 %), shuningdek, Andijon (235,2 mlrd. so‘m yoki 5,8 %) viloyatlari band etdi.



**4-rasm. Hududlar kesimida telekommunikatsiya xizmatlari (2023-yil mlrd. so‘m)<sup>9</sup>**

O‘zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasida izchil taraqqiyot kuzatilmoqda. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi AKT xizmatlari eksportini faol rivojlantirmoqda. O‘zbekistondagi etakchi kompaniyalar allaqachon o‘z xizmatlarini chet elda, asosan MDH va boshqa mamlakatlarda taqdim etishni boshladilar. O‘zbekiston Respublikasida AKT-xizmatlar eksporti mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga, yangi ish o‘rinlari tashkil etishga va hayot sifatini yaxshilashga ko‘maklashishi mumkin.


AKT xizmatlari eksportining asosiy tovar pozitsiyalari orasida dasturiy ta‘minotni ishlab chiqish, xizmatlarni autsorsing, dizayn va multimedia texnologiyalari xizmatlari ajralib turadi.

Hozirgacha O‘zbekistonda kompyuter xizmatlarining eksport salohiyati to‘liq amalga oshirilmagan. 2016-yildan 2021-yilgacha kompyuter xizmatlari eksporti ulushi maksimal 8,9 foizni tashkil etdi va 2021-yilda 4,5 foizga kamaydi, kompyuter xizmatlarining asosiy qismi ichki bozor tomonidan iste‘mol qilinadi. Tahlil qilinayotgan 2019-yildan 2021-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekistonda kompyuter xizmatlari tashqi savdosi saldosi salbiy bo‘lib qolmoqda.

2022-yil 1-chorakda AKT eksportida kompyuter xizmatlarining ulushi 9% foizni tashkil etmoqda. So‘nggi besh yilda telekommunikatsiya va IT-kompaniyalar soni 1,8 barobarga oshgan. 2023-yil boshida respublikada 12 mingdan ortiq AKT korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda. Sanoatda 100 mingdan ortiq kishi ishlaydi. 2022-yil yakuniga ko‘ra, AKT xizmatlari hajmi 125,5 foizga o‘sib, 22,9 trillion so‘mni tashkil etib, shundan 4,2 trillion so‘mi O‘zbekiston kompaniyalari va mutaxassislari tomonidan ko‘rsatilgan dasturlash xizmatlaridir. Ya‘ni, AKT xizmatlarining qo‘shilgan qiymatini aloqa xizmatlari – 57,2%, kompyuter dasturlash, maslahat va boshqa tegishli xizmatlar – 24,6%, ma‘lumotlarni joylashtirish va qayta ishlash xizmatlari, veb-portallar – 10,1%, dasturiy ta‘minotni chiqarish – 4,3%, kompyuterlarni ta‘mirlash va aloqa vositalari – 3,8% tashkil etadi. 2023-yilning birinchi choragida O‘zbekiston IT-sohasining umumiy daromadi

<sup>9</sup>Stat.uz ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.


2,38 trillion so‘mni tashkil etdi, bu 2022-yilning shu davriga nisbatan qariyb to‘rt barobar ko‘pdir. Raqamli xizmatlar eksporti 57,2 million dollargacha oshdi, IT Park ma’lumotlariga ko‘ra, sof daromad tushumning 90 foizdan ortig‘ini yoki 2,158 trillion so‘mni tashkil etdi.



**5-rasm. O‘zbekiston Respublikasi AKT xizmatlari eksporti (ming AQSH dollari)<sup>10</sup>**

O‘zbekiston IT-sanoatining rivojlanishida xorijiy kapital muhim rol o‘ynaydi. Qo‘shma Shtatlar o‘tgan yilning o‘zida 150 million dollarlik O‘zbekiston IT xizmatlarining eng yirik importchisiga aylandi. Bu AQShga eksportni 2022-yildagi 63 foizdan mamlakatlar bo‘yicha 20-o‘ringa ko‘tardi va bu sektorning Qo‘shma Shtatlardagi raqamli ekotizimga qo‘shgan hissasini ko‘rsatadi.

Shunga qaramasdan, O‘zbekiston Respublikasiga AKT xizmatlari importi eksportdan ancha yuqori bo‘lib, buning asosiy sabablaridan biri bu O‘zbekistondagi ko‘plab kompaniyalar o‘z faoliyati uchun xorijiy AKT xizmatlaridan foydalanadilar. Bu boshqa mamlakatlardan malakali mutaxassislarni jalb qilish zarurligini keltirib chiqaradi, bu esa umuman global iqtisodiyotni rivojlantirishga yordam beradi.



**6-rasm. O‘zbekiston Respublikasi AKT xizmatlari importi (ming AQSH.doll.)<sup>11</sup>**

2017-2023 yillarda O‘zbekistonda AKT xizmatlari importi sezilarli darajada o‘ydi. Xususan, telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlarini o‘z ichiga olgan xizmatlar importi 2023-yilda 2,57 milliard dollarni tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 0,7 foizga o‘sgan.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekistonda telekommunikatsiya korxonalarining innovatsion rivojlantirish strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari”** deb nomlangan uchinchi bobida telekommunikatsiya sohasi korxonalarida innovatsion

<sup>10</sup> Stat.uz ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

<sup>11</sup> Stat.uz ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

infratuzilmani tizimlashtirish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish hamda barqaror va inklyuziv rivojlanishning yangi strategiyalari, mexanizmlari va biznes jarayonlarini takomillashtirish bilan bog'liq tavsiyalar keltirilgan.

Iqtisodiy o'sishni ta'minlash hamda barqaror va inklyuziv rivojlanishga erishish uchun O'zbekiston innovatsiyalarni rag'batlantirish, birinchi navbatda, iqtisodiyotning turli tarmoqlari uchun qiymat yaratishning yangi usullarini muntazam sinab ko'rish va o'rganish uchun sharoit yaratish orqali o'z iqtisodiyoti uchun mavjud imkoniyatlarni aniqlashi va ulardan foydalanishi kerak bo'ladi. Bu salohiyatning salmoqli qismi boshqa sharoitlarda o'z samarasini ko'rsatgan g'oyalarni o'zlashtirish, ularni tadbirkorlik va xorijiy sarmoyalarni jalb etish orqali O'zbekistonda faoliyatning turli sohalarida aks ettirishdan iborat. Bunga erishish uchun mamlakatda dinamik xususiy sektor kerak.


Startaplarni qo'llab-quvvatlash va innovatsion infratuzilmani yaratish - texnoparklar, texnologiyalar transferi markazlari, innovatsion klasterlar, venchur tashkilotlar va biznes-inkubatorlar tarmog'ini shakllantirish lozim. Bu innovatsiyalar va yangi texnologiyalar asosida keng ko'lamli ishlab chiqarishni rag'batlantiradi.

Innovatsion faol tashkilotlar ulushini oshirish ya'ni, innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning institutsional mexanizmlarini ishlab chiqish va takomillashtirish kerak. Bu xususiy sektorning innovatsion jarayonlarda faol ishtirok etishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va innovatsion faoliyat subyektlari sonini ko'paytirishni o'z ichiga oladi.

IT-korxonaning innovatsion faoliyatini infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashning tarkibiy modeli turli elementlarni o'z ichiga oladi, ularning har biri innovatsiyalar uchun qulay muhit yaratishda o'ziga xos rol o'ynaydi (7-rasm). Ushbu modelni samarali amalga oshirish korxonaga yangi mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqish, bozor o'zgarishlariga moslashish va raqobatbardoshlikni saqlab qolish imkonini beradi. Zamonaviy ilmiy tamoyillar, usullar va yondashuvlar asosida shakllangan innovatsion tizim va uni qo'llab-quvvatlovchi infratuzilma O'zbekistonning innovatsion rivojlanish yo'liga o'tishini to'liq amalga oshirishga qodirdir. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, IT klasterning tipik modeli ishlab chiqilgan. Klasterni strategik rejalashtirish va rivojlantirishda uning muvaffaqiyatli ishlashi va o'sishini ta'minlash uchun tashqi omillarni ham hisobga olish zarur.

IT klasterining asosiy farqlovchi jihati shundaki, unga kiruvchi kompaniyalar yagona qiymat zanjiri doirasida faoliyat yuritib, yakuniy xizmatni to'liq mustaqil amalga oshiradilar, IT klaster kompaniyalari esa maksimal mumkin bo'lgan xizmatlar turlarini taqdim etadilar, bu esa iste'molchi ehtiyojini to'liq qondirish imkonini beradi.

Ayni paytda telekommunikatsiya sanoat korxonalarini uchun innovatsion rivojlanish yo'li yuqori texnologiyali ishlab chiqarishga yo'naltirilgan bo'lib, mamlakatda zamonaviy iqtisodiyotni barpo etishning yagona yo'li ekanligiga shubha yo'q. IT klasteriga qo'shilish ko'p sabablarga ko'ra kompaniyalar uchun foydali bo'lishi mumkin. IT klasterida ishtirok etishning rivojlanishiga turtki beruvchi va to'sqinlik qiluvchi omillar tahlili qilindi (1-jadval).




**7-rasm. Telekommunikasiya korxonalarining innovatsion faoliyatini infratuzilmaviy qo‘llab-quvvatlashning tarkibiy modeli<sup>12</sup>**

<sup>12</sup> Muallif ishlanmasi

Ushbu afzalliklar IT klasterga a'zo kompaniyalarning barqaror rivojlanishiga, raqobatbardoshligini oshirishga va tez o'zgaruvchan bozor sharoitlariga muvaffaqiyatli moslashishga yordam beradi. Ko'pgina afzalliklarga qaramay, kompaniyalarning IT-klasterdagi ishtiroki ham ba'zi kamchiliklar va qiyinchiliklarga ega bo'lishi mumkin. Ushbu kamchiliklar klasterning o'ziga xos xususiyatlariga, kompaniyaning hajmiga va boshqa omillarga qarab farq qilinishi tahlil qilindi. Bu jihatlarni boshqarish IT klasteridagi kompaniyalarning muvaffaqiyatli ishlashi uchun puxta tahlil qilish, hamkorlik strategiyalarini ishlab chiqish, innovatsiyalar va risklarni boshqarishni talab etadi.

IT klasteriga qo'shilish IT biznesini rivojlantirish, innovatsiyalar kiritish va kengaytirishga intilayotgan kompaniyalar uchun juda foydali bo'ladi. IT klasteridagi moliyaviy menejment puxta tahlil, rejalashtirish va ushbu muhitdagi kompaniyalar uchun foydani ko'paytirish va to'siqlarni minimallashtirish uchun strategik yondashuvni talab qiladi.



**8-rasm. Telekommunikatsiya korxonalarida xizmat ko'rsatishda innovatsion qiymat zanjirini yaratish biznes freymvorki<sup>13</sup>**

Bugungi kunda telekommunikatsiya sanoati yuqori raqobatbardoshlik sharoitida faoliyat olib borayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Liberallashtirish, xususiylashtirish va globallashtirish telekommunikatsiya bozorida shiddatli raqobatga olib keladi, bu esa telekommunikatsiya kompaniyalarining bozor ulushini kengaytirish va shu orqali mijozlar bazasini, sotish hajmini va natijada foydani oshirish muammolarini o'rganadi.

Hozirgi kunda telekommunikatsiya korxonalarida texnologik innovatsiyalar, kuchayib borayotgan raqobat va iste'molchilar ehtiyojlarining o'zgarishi bilan bog'liq jiddiy o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Natijada, telekommunikatsiya korxonalaridan raqobatbardosh va muvaffaqiyatli qolish uchun yangi biznes jarayonlarni joriy etish talab etilmoqda. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun mavjud bo'lgan biznes jarayonlarini takomillashtirish va joriy etish zarur. Biznes jarayonlarni takomillashtirish telekommunikatsiya sohasida xizmat ko'rsatishning innovatsion faoliyatini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish imkonini beradi.

<sup>13</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

## IT klasterlarining rivojlanishiga turtki beruvchi va to'qsinqilik qiluvchi omillar tahlili

Afzalliklari	Kamchiliklari
<b>Tashkiliy va boshqaruv omillar</b>	
Klasterda ishtirok etish boshqa kompaniyalar, investorlar, universitetlar va davlat idoralari bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga yordam beradi. Klasterda iste'dodlar mavjudligi bilan kompaniyalar malakali xodimlarni osonroq jalb qilishlari va saqlab qolishlari mumkin.	Klasterdagi kompaniyalar o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi bo'lishi mumkin, ayniqsa resurslar, mijozlar yoki bozor ulushlari uchun raqobatlashganda. Klasterdagi boshqa kompaniyalar, hamkorlar va manfaatdor tomonlar bilan munosabatlarni boshqarish madaniyat, maqsadlar va ishlash usullaridagi farqlar murakkab bo'lishi mumkin.
<b>Moliyaviy omillar</b>	
IT klasteridagi kompaniyalar texnologiya sohasiga qiziqqan investor-lar mavjudligi sababli venchur kapital, grantlar va boshqa moliyalashtirish manbalaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Klasterdagi kompaniyalar umumiy loyihalar bo'yicha hamkorlik qilishlari va birgalikda sarmoya kiritishlari mumkin, bu ularga risklarni taqsimlash va potentsial daromadlarni oshirish imkonini beradi.	Klasterda venchur kapitali va boshqa moliyaviy resurslar uchun yuqori raqobat bo'lishi mumkin. Klasterdagi ba'zi kompaniyalar yuqori raqobat yoki boshqa omillar tufayli moliyalashtirishdan foydalanishda cheklovlarga duch kelishi mumkin, bu esa o'z biznesini kengaytirishni qiyinlashtiradi. Kutilmagan moliyaviy xarajatlar yoki sarmoya etishmasligi klasterdagi kompaniyalarning rivojlanishini sekinlashtirishi mumkin.
<b>Iqtisodiy omillar</b>	
IT klasterga a'zolik hamkorlik va sheriklik orqali kompaniyalarga yangi bozorlar va mijozlarga kirish imkonini beradi. Kompaniyalar resurslar va texnologiyalarni almashish orqali samaraga erishishlari mumkin. Yuqori malakali mutaxassislar va bilimlarni jamlash hududning iqtisodiy rivojlanishiga yordam beradi. Klasterlar kompaniyalarning raqobatbardoshligini oshirishda xizmatlar eksportini rag'batlantiradi.	Klaster resurslari va qo'llab-quvvatlashiga tayangan holda, kompaniyalar klaster ichidagi o'zgarishlarda muammoli bo'lishi mumkin bo'lgan boshqa ishtirokchilar yoki tashkilotga qaramlik xavfiga duch kelishi mumkin. Kompaniyalar mahalliy iqtisodiy muhitga haddan tashqari qaram bo'lib qolishi mumkin, bu esa iqtisodiy tanazzul sodir bo'lgan taqdirda muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.
<b>Siyosiy omillar</b>	
Davlat yoki mahalliy hokimiyat organlari tomonidan qo'llab-quvvatlanishi klasterdagi kompaniya-larning rivojlanishiga hissa qo'shishi mumkin. Klaster manfaatlarini davlat organlari oldida lobbi qilish bo'yicha sa'y-harakatlarni birlashtirish.	Siyosiy beqarorlik yoki qonunchilikdagi o'zgarishlar klasterdagi kompaniyalar uchun noaniqlikni keltirib chiqarishi mumkin. Tovar va xizmatlar eksporti va importi bilan bog'liq siyosiy qarorlar kompaniyalar faoliyatiga ta'sir qilishi mumkin.
<b>Texnologik omillar</b>	
Klaster kompaniyalar o'rtasida yangi texnologiya va innovatsiyalar almashinuvini osonlashtiradi. IT klasteriga a'zolik kompaniyalar o'rtasida ilg'or tajriba va texnik bilimlarni osongina almashish imkonini beradi.	Kompaniyalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning yuqori darajasi intellektual mulk va maxfiy ma'lumotlarning chiqib ketishi xavfiga olib kelishi mumkin. Kompaniyalar klasterda keng tarqalgan ma'lum texnologiyalarga qaram bo'lib qolishi mumkin, bu esa yangi texnologik o'zgarishlarga moslashishni qiyinlashtirishi mumkin.

